


# Zarafshon

Fidoyilik —
Vatanga xizmat demak!

2023-yil 19-avgust, shanba,
99 (23.820)-son

1913-yil aprel oyidan chiqa boshlagan

www.zarnews.uz https://www.facebook.com/zarnews.uz @zarnews_uz https://twitter.com/zarnews_uz


**KUN HIKMATI**

Tadbirkorning obro'si hamma ham tadbirkor bo'la olmasligidadir.

## YANGI HAYOT UCHUN, YANGI O'ZBEKISTON UCHUN!

*20-avgust – Tadbirkorlar kuni*

# IMTIYOZLAR KENGAYTIRILADI

**18-avgust kuni davlatimiz rahbarining mamlakatimiz tadbirkorlari bilan navbatdagi ochiq muloqoti bo'lib o'tdi.**

Videomuloqot tarzidagi uchrashuvda viloyatimiz tadbirkorlari "Urgut" erkin iqtisodiy zonasi Sazag'on massivi (Nurobod tumani)dagi studiyadan ishtirok etdi. Shuningdek, poytaxtimizdagi Xalqaro kongress markazida ham viloyatimizdan vakillar ishtirok etishdi. Prezidentimiz e'lon qilgan farmon va farmoyish asosida tadbirkorlarning bir guruhiga davlat mukofotlari va "Faol tadbirkor" ko'krak nishoni tantanali topshirildi.

Joriy yilgi muloqot arafasida viloyatimiz tadbirkorlaridan 550 ga yaqin murojaat bo'ldi va ularning 345 tasiga ijobiy yechim topilgan bo'lsa, 80 ta murojaat rad etilgan. Respublikamiz tadbirkorlaridan esa jami 6 mingga yaqin murojaat kelib tushgan. Tadbirkorlar ko'targan asosiy masalalar – kredit va moliyaviy yordamni kengaytirish, biznesni joy va infratuzilma bilan ta'minlash, soliq tizimini soddalashtirish, tekshirishlar va ortiqcha byurokratiyani keskin qisqartirish bilan bog'liq.

Oldingi ochiq muloqotlarga tayyorgarlik davomida ko'tarilgan masalalarning 80 foizi individual xususiyatga ega bo'lib, ko'plari joyida hal qilingan edi. Bu safar 70 foiz tadbirkorlar tizimdagi muammolarning yechimlarini taklif qilishmoqda.

- Tadbirkorlarimiz faqat o'ziga emas, butun sohaga naf keltiradigan masalalarni ko'tarayotgani quvonarli, - dedi Prezidentimiz va ochiq muloqot natijalari bo'yicha qabul qilinadigan qarorlarda bularning barchasi inobatga olinishini ta'kidladi. - Kredit va soliq tarixi toza tadbirkorlarga o'z faoliyatini yangi bosqichga olib chiqish uchun kredit olishda garov talabi 50 foizga kamaytiriladi. "Qishloq qurilish bank" "Biznesni rivojlantirish banki"ga aylantiriladi. Ushbu yangi bankning faoliyati ham, ishlash uslubi va moliyalashtirish mexanizmlari ham yangicha bo'ladi. Bank huzurida har bir hududda jami 14 ta kichik biznes markazlari tashkil etiladi. Markazlar tashabbuskorlarning biznes loyihalarini ishlab chiqishga ko'maklashadi, o'z hisobidan yangi loyiha qilmoqchi bo'lgan tadbirkorlarni o'qitadi, yangi loyihalarga zarur mutaxassislarni jalb qiladi, tadbirkorlar uchun buxgalteriya, soliq, audit, marketing, huquqiy va boshqa konsalting xizmatlarini ko'rsatadi.

Endilikda hududlardagi kichik biznes markazlarida o'qigan tadbirkorlarning loyihalarini eng qulay shartlarda moliyalashtirish yo'lga qo'yiladi. Bunda, kichik biznes loyihasining 10 foiziga tadbirkor investitsiya kiritsa, 45 foiziga "Biznesni rivojlantirish banki"ning o'zi, qolgan 45 foizi uchun davlat ko'magida resurs yo'naltiriladi.

Tadbirkorlarga 5-7 yil muddatga imtiyozli shartlar asosida kredit beriladi.

O'z biznesini yo'lga qo'ya olgan, "kredit va soliq tarixi" toza bo'lgan tadbirkorlarga faoliyatini yangi bosqichga olib chiqish uchun kredit olishda garov talabi 50 foizga kamaytiriladi.

Shuningdek, Prezident tadbirkorlar bilan muloqotida QQS to'lovchisi guvohnomasini vaqtincha to'xtatib turish amaliyoti bekor qilinishini bildirdi.

Sanoatni rivojlantirish jamg'armasidan 1-sentabrdan boshlab:

- yangi loyihalarni moliyalashtirish uchun xorijiy valyutada 5 foiz, milliy valyutada 10 foiz stavkada 10 yil muddatga kreditlar ajratiladi;

- sanoat korxonalariga 1 yil muddatgacha xorijiy valyutada 4 foiz, milliy valyutada 10 foiz stavkada aylanma mablag' taqdim etiladi. Bunda, olib kelinadigan asbob-uskuna uchun 15 foizlik avans to'lovlari ham jamg'arma tomonidan kredit qilib beriladi;

- marketing, loyihalashtirish, xorijiy mutaxassis jalb qilish xarajatlarining 20 ming dollargacha qismiga kompensatsiya to'lanadi.

Bundan tashqari, sanoat ipotekasi tizimi yo'lga qo'yilib, tadbirkorlarga "tayyor biznes" shaklida ishlab chiqarish maydonlari qurib beriladi.

1-oktabrdan qo'shilgan qiymat solig'ini qaytarishda soliq uzilishi koeffitsiyentini qo'llash amaliyoti, ya'ni "tax gap" bekor qilinadi. Shu bilan birga, Savdo-sanoat palatasi, Biznes-ombudsman soha vakillari bilan birga tadbirkorlarning ochiq-oshkora reytingini joriy qiladi.

Bunda, kelgusi yil 1-yanvardan boshlab reytingi yuqori korxonalar:

- barcha turdagi soliq tekshiruvlaridan ozod qilinadi;

- ularga qo'shilgan qiymat solig'ining ortiqcha qismi bir kunda qaytarib beriladi;

- qo'shilgan qiymat solig'i to'lovchisi guvohnomasini vaqtinchalik to'xtatib turish amaliyoti bekor qilinadi.

Ochiq muloqot yakunida davlatimiz rahbari tadbirkorlarning fikr va takliflarini tingladi.

**Tadbirkorlarga 5-7 yil muddatga imtiyozli shartlar asosida kredit beriladi.**

* * *

**QQS to'lovchisi guhovnomasini vaqtincha to'xtatib turish amaliyoti bekor qilinadi.**

* * *

**Soliq bo'yicha tadbirkorlarga nisbatan da'vo kiritish muddati 5 yildan 3 yilga tushiriladi.**

* * *

**1-oktabrdan "tax gap" amaliyoti bekor qilinadi.**




# Ular biznesda barchaga namuna

**O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 17-avgustda qabul qilingan "Faol tadbirkor" ko'krak nishoni bilan taqdirlash to'g'risida"gi farmoyishiga ko'ra, aholi farovonligini ta'minlashga munosib hissasini qo'shayotgan bir guruh tadbirkorlar mukofotlandi.**

Ular orasida 9 nafari samarqandlik tadbirkorlar ham bor.

Samarqand shahridagi "Shirin" shaharchasini barpo etish direksiyasi markazida ko'krak nishonlarini topshirish marosimi bo'lib o'tdi.

Tadbir avvalida Prezident farmoyishi o'qib eshittirildi. Viloyat hokimi Erkinjon Turdimov ushbu ko'krak nishoniga munosib ko'rilgan tadbirkorlarni tabriklab, mukofotlarni topshirdi.

– Bu e'tirofni viloyatimizda tadbirkorlik muhitiga berilgan baho deb bilaman, – deydi Oqdaryo tumanidagi "Pichoqchi Dry Fruits" mas'uliyati cheklangan jamiyati rahbari Tolibxon Abdujalilov. – Eksportchi korxonalarga berilayotgan imtiyozlar faoliyatimizda katta o'zgarishlarga imkon yaratdi. Shuning hisobiga bugun korxonamizda doimiy va kasanachilik asosida 1500 fuqaro ish bilan band.

**Sulaymon MARDIYEV,**
**Husan ELTOYEV (surat).**

# Faol tadbirkorlar taqdirlandi

**O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 18-avgustda "Tadbirkorlar kuni munosabati bilan soha vakillaridan bir guruhini mukofotlash to'g'risida"gi farmoni qabul qilindi.**

Farmonga asosan, o'zining tashabbuskorligi, bilim va tajribasini namoyon etib, sohaga investitsiyalarni jalb qilish, import o'rnini bosuvchi mahsulotlar ishlab chiqarish, xizmatlar ko'rsatishni yanada kengaytirish, yangi ish o'rinlari yaratish, aholi farovonligini yuksaltirish yo'lida ibrat va namuna ko'rsatayotgan 44 nafar tadbirkor mukofotlandi.

Ular orasida Samarqanddan quyidagilar bor:

**«Do'stlik» ordeni bilan**

**SHUKURLAYEV Dilshod Dalerovich** — Samarqand shahridagi «Zarmed Pratiksha Hospital Group» mas'uliyati cheklangan jamiyati ta'sischisi

**«Shuhrat» medali bilan**

**NORBOYEV Anvar Ochilovich** — Kattaqo'rg'on tumanidagi «Kattaqo'rg'on elektrotexnika zavodi» mas'uliyati cheklangan jamiyati direktori

* * *

**O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 17-avgustdagi «Faol tadbirkor» ko'krak nishoni bilan taqdirlash to'g'risida"gi farmoyishiga ko'ra, mamlakatimizda biznesdagi muvaffaqiyatlari bilan barchaga namuna bo'layotgan bir guruh tadbirkorlar «Faol tadbirkor» ko'krak nishoni bilan taqdirlandi.**

**Ular orasida viloyatimizdan quyidagilar bor:**

**ABDUJALILOV Tolibxon Abduvayitovich** — Oqdaryo tumanidagi «Pichoqchi Dry Fruits» mas'uliyati cheklangan jamiyati rahbari

**AHROROV Bahodir Rustamovich** — Urgut tumanidagi «Sam-Nur-Tafviz» mas'uliyati cheklangan jamiyati direktori

**ISLOMOVA Mahbuba Xayrullayevna** — Ishtixon tumanidagi «Nodirxon Agro Produkt» ishlab chiqarish korxonasi ta'sischisi

**QARSHIYEV Sirojiddin Ergashevich** — Nurobod tumanidagi «Espero.KSE» mas'uliyati cheklangan jamiyati rahbari

**MUNISOV Abduaziz Abdulboriyevich** — Samarqand shahridagi «Tespack» mas'uliyati cheklangan jamiyati bosh direktori

**RUSTAMOV Ilhom Aslamovich** — Samarqand shahridagi «EB Ilyosbek Story House» mas'uliyati cheklangan jamiyati ta'sischisi

**SALOYEV Ahmad Akbarovich** — Samarqand shahridagi «Shashlik Uz» xususiy korxonasi rahbari

**SALOHIDDINOV Behruz Sayfiyevich** — Past Darg'om tumanidagi «New Tech Samarkand» mas'uliyati cheklangan jamiyati ta'sischisi

**TO'RAYEV Zafar Suyunovich** — Urgut tumanidagi «Big Stroy Building» mas'uliyati cheklangan jamiyati ta'sischisi

# Kechagi kun hikoyasi — bugun ertak




**Bolalik paytimizda bobolarimiz Ikkinchi jahon urushi va undan keyingi davrlar haqida so'zlab berganlarida ularning gaplari ertakdek tuyulardi. Biz bugungi kun farzandlariga bobolarimiz emas, o'zimizning yoshlik davrimizni gapirib beradigan bo'lsak, ular ishonmasligi mumkin.**

O'tgan asrning 80-yillari ayni bizning o'smirlik davrimizga to'g'ri kelgan edi. Bir katta qishloqda birgina Mamadamin boboning "Moskvich" mashinasi bo'lardi. To'y va ma'rakalarga xabar yetkazish, to'lg'oq tutsa, homilador ayollarni tug'ruqxonaga olib borish va boshqa bir qator yumushlarni bajarish uchun shu mashina xizmat ko'rsatar edi. Tengdoshlarimizning to'ylarida kelin-kuyovlarning "ZAGS" mashinasi ham aynan shu "Moskvich" bo'lgan. Kelin dugonalari ham, kuyov jo'ralari ham qudalar bilan birga, topilsa, bir eski avtobus, bo'lmasa, "bortovoy mashina" yoki traktorning "telejka"sida ketavergan. Bugun-chi? Har ikki xonadondan birida avtomobil bor.

Vatanimiz endigina mustaqillikka erishgan paytlarda ko'pgina o'quvchi va talabalar ta'lim muassasalarida o'qishdan ko'ra ko'proq pul topishni, ro'zg'or tebratishga qiynalayotgan ota-onasiga yordam berishni o'ylab qolgandi. Ayrim oilalar makkajo'xorini tegirmonga torttirib, non pishirib yeganlari haqiqat. Sababi, o'sha paytda bug'doydan ko'ra makkajo'xori arzonroq edi. Bir kuni o'tsa, ertasi kuni uchun non g'amini yeydigan holatda edik.

Keyinchalik bu muammolar sekin-asta ortga chekindi. Ammo oddiy xalqni qiynaydigan boshqa masalalar hali oldinda edi.

Qo'shrabot tumani yoshlari orasida kitobga, ilm olishga mehr qo'yganlari ko'pchilikni tashkil etardi. Biroq ularning o'qishlari uchun muammo ketidan muammo tug'ilaverdi. Ular kunduzi dars tayyorlamasa, kechasi bu ishni bajarishning iloji yo'q edi. Chunki elektr energiyasidagi uzilishlar bunga yo'l qo'ymasdi. Aslida uzilishlar deyish ham noto'g'ridir. Sababi, bir sutka davomida bir yoki ikki soatgina elektr energiyasi bo'lib turmasa, boshqa payt yo'q edi.

Bundan tashqari, oddiy oila, masalan, moddiy yordam orqali kun kechiradigan odamlarning pullari bank kartaga tushirib berilardi. Qo'shrabotning chekka qishloqlari tugul, markazida ham terminal topish amrimahol edi. Ular keyin kim-kimlarga iltimos qilib, naqdlashtirishga harakat qilardi. Noinsof naqdlashtiruvchilar har 100 ming so'm puldan 15-20 ming so'mini olib qolardi. Shu o'rinda yana bir gap: o'sha moddiy yordam yoki bola puli oladigan oilalar aslida ehtiyojmand bo'lsa-da, ularning bir oyligini olib qolish evaziga chiqarib beradigan "ishbilarmonlar" ham bo'lganligi rost-ku. Hatto ijtimoiy himoyaga muhtoj bo'lmagan ba'zi oilalar ham mahalla fuqarolar yig'inlaridagi ayrim tanish-bilishlari orqali, bir oyligini olib qolishga rozi bo'lib, moddiy yordam va bola puli olgan.

Olis qishloqlar aholisini qiynagan eng katta muammolardan biri tibbiy xizmatning ko'ngildagidek emasligi edi. Masalan, tog'lar orasidagi qishloqlarda yashaydigan odamlardan kimdir og'ir betob bo'lib qolsa, tez yordam mashinasini chaqirish, u esa vaqtida yetib kelishi amrimahol edi. Avvalo, chaqirish uchun aloqa muammosi, keyin esa, ayniqsa, yog'ingarchilik paytlarda qishloq yo'llarining loyligi sababli tez yordam mashinalarining botib qolish holatlari kuzatilgani ham bor gap.

Keyingi yillarda shu va boshqa bir qator muammolarga yechim topilyapti. Bugun olis qishloqlar ham obod bo'lib, nafaqat uylar, balki ko'chalar ham kechalari nurli. Asosiy ko'chalar asfaltlangan, qishloqlarning ichki yo'llari shag'allashtirilgan. Yozda chang, qishda loy bo'ladigan ko'chalar deyarli qolmadi. Har bir hudud uchun alohida tibbiy punkt va tez tibbiy yordam shoxobchalari tashkil etildi. Maktablarda Wi-Fi qurilmalari o'rnatilib, internet tarmog'iga ulanish imkoniyatlari yaratildi.

Ijtimoiy himoyaga muhtoj aholi qatlamini aniqlash va ularga ko'maklashishning yangicha tizimi tashkil etildi. Bank kartasidagi mablag'ni naqdlashtirishdagi muammolarga barham berildi.

Bu kabi xayrli ishlar izchil davom etmoqda. Olis qishloqlarda yashovchi oddiy odamlarning ham ertangi kunga bo'lgan ishonchi ortib, Yangi O'zbekistonda yangicha dunyoqarash bilan hayot kechirmoqda.

**Shavkat ZIYODDINOV,**
**Qo'shrabot tumani.**

# Tovarlar erkin harakatlanishini cheklash

## kamida 10 million so‘m jarima bilan jazolanadi



**Monopoliya, raqobat tushunchalari haqida eshitamiz-u, uni tartibga soluvchi, sohada davlat siyosatini amalga oshiruvchi organ haqida bilganimiz kam. O‘zi shunday idora kerakmi, degan savol ham tug‘iladi goho.**

**Yaqinda bu borada qonunchilikda qator yangiliklar bo‘lgani aytilmoqda. Xo‘sh, ularning mohiyati nimada? Bundan nima naf?**

**Shu va boshqalar haqida bilish maqsadida Raqobatni rivojlantirish va iste’molchilar huquqlarini himoya qilish hududiy boshqarmasi boshlig‘i o‘rinbosari Jahongir Ashurov bilan suhbatlashdik.**

**- Jahongir aka, suhbatimizni sohaga oid qonunchilik, aniqrog‘i, unga kiritilgan o‘zgartishdan boshlasak...**

- Darhaqiqat, joriy yilning 3-iyul kuni yangi tahrirdagi "Raqobat to‘g‘risida"gi Qonun davlatimiz rahbari tomonidan imzolandi. Qonun yurtimizda tovarlarning erkin harakatlanishini ta’minlash, raqobat muhitini himoya qilish, tovar, moliya va raqamli bozorlarning samarali faoliyat ko‘rsatishiga sharoit yaratish maqsadida ishlab chiqilgan.

Yangi qonun bilan 2012-yil qabul qilingan “Raqobat to‘g‘risida”gi hamda 1999-yil qabul qilingan “Tabiiy monopoliyalar to‘g‘risida”gi Qonunlar birlashtirilgan.

Bundan tashqari, qonunga bir qator yangi, ya’ni monopoliyaga qarshi kompleans, raqamli platforma kabi tushunchalar kiritildi. Ustun mavqeni belgilashning yangi mezonlari kiritilib, tabiiy monopoliya subyektlari ham ustun mavqega ega subyektlar qatoriga qo‘shildi.

Qisqasi, qonun raqobatga qarshi harakatlarning kamayishiga, iqtisodiy faoliyat erkinligi, tovarlarning erkin harakatlanishiga, raqobat muhitini rivojlantirishga hamda tovar va raqamli bozorlarning samarali faoliyat ko‘rsatishiga, iqtisodiyotda davlat ishtirokini qisqartirishga huquqiy asos yaratadi.

Hududiy boshqarma tomonidan mazkur vazifalardan kelib chiqib, tegishli ishlar amalga oshiriladi.

**- Aksariyat hollarda jamoatchilikda boshqa faoliyat to‘g‘risida deyarli tushuncha yo‘q. Shu bois o‘tgan olti oyda amalga oshirilgan ishlar haqida to‘xtalib o‘tsangiz.**

- Qonun hujjatlarining raqobatga ta’sirini baholash bo‘yicha hududiy boshqarma tomonidan qonun hujjatlarining raqobatga ta’sirini baholash metodikasi hamda hududiy boshqarmaning tegishli buyruqlariga asosan, hokimliklar hamda davlat boshqaruv organlari tomonidan qabul qilingan hujjatlar (farmoyish, qaror, buyruq, yig‘ilish bayonnomalari, chora-tadbirlar, yozishmalar)ning raqobatga ta’sirini baholash bo‘yicha o‘rganish (inventarizatsiya) ishlari o‘tkazildi.

O‘rganishlar natijasi bo‘yicha 6 ta tuman hokimliklari (Urgut, Past Darg‘om, Oqdaryo, Ishtixon, Toyloq va Qo‘shrabot tumani) hamda Samarqand davlat o‘rmon xo‘jaligiga nisbatan O‘zbekiston Respublikasi “Raqobat to‘g‘risida”gi Qonunining 12-moddasi talablari buzilishi bo‘yicha ishlar qo‘zg‘atildi.

Shuningdek, qonunbuzilish holatlarini bartaraf etish va kelgusida yo‘l qo‘ymaslik to‘g‘risida tegishli ko‘rsatmalar berildi.

Bundan tashqari, yanvar-iyun oylarida 878 ta tanlov savdolari o‘rganildi. O‘rganish davomida 283 tanlov savdolarida 289 ta kamchilik aniqlandi. Shundan 23 holatda ishtirokchilar o‘rtasida affillanganlik, 259 holatda savdo o‘tkazishning qonun hujjatlarida belgilangan tartib buzishi aniqlangan.

Aniqlangan kamchiliklar yuzasidan hududiy boshqarma tomonidan qonunbuzilish holatlariga yo‘l qo‘ygan korxonalarga ko‘rsatmalar berildi.

Bundan tashqari, hisobot davrida davlat xaridlari sohasida 15 ta tadbirkorlik subyekti tomonidan kelib tushgan murojaatlar ko‘rib chiqildi va 5 holatda “Raqobat to‘g‘risida”gi Qonunning 14-moddasi talablari buzilishi aniqlandi.

Shu davrda tabiiy monopoliya sohasi, shuningdek, narx va tariflarni tartibga solish bo‘yicha hududiy boshqarmaga 11 ta murojaat kelib tushdi. Shundan 2 tasi elektr tarmoqlari, 5 tasi tabiiy gaz ta’minoti, 2 tasi suv ta’minoti korxonalari tomonidan ko‘rsatilayotgan xizmatdan norozilik to‘g‘risida va 1 tasi boshqa sohaga tegishli murojaatlarni tashkil etdi. Murojaatlarni ko‘rib chiqish natijasi bo‘yicha 9 tasiga tushuntirish berilgan, 1 tasi tegishliligi bo‘yicha yuborildi, 1 ta murojaat bo‘yicha qonunbuzilish holati aniqlandi.

**- Yangi tahrirdagi qonunda qonunbuzilish holatlariga nisbatan choralar kuchaytirilgani aytilmoqda. Shu haqda ham to‘xtalib o‘tsangiz.**

- Qonun bilan Ma’muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksga o‘zgartishlar kiritilib, raqobat to‘g‘risidagi qonunchilik hujjatlarini buzganlik uchun ma’muriy javobgarlik kuchaytirildi. Ya’ni, raqobat sohasidagi vakolatli davlat organiga axborot taqdim etmaslik yoki o‘z vaqtida taqdim etmaslik yoxud unga bila turib, noto‘g‘ri ma’lumotlarni taqdim etganlik uchun fuqarolarga BHMning 3 baravaridan 10 baravarigacha (990 ming so‘mdan 3 million 300 ming so‘mgacha);

mansabdor shaxslarga esa 10 baravaridan 20 baravarigacha (6 million 600 ming so‘mgacha) miqdorda jarima jazosi tayinlanadi.

Davlat hokimiyati va boshqaruvi organlarining mansabdor shaxsi tomonidan xomashyo, tovarlarning erkin harakatlanishini va realizatsiya qilinishini hamda xizmatlar ko‘rsatilishini qonunga xilof ravishda cheklash BHMning 30 baravaridan 50 baravarigacha (9 million 900 ming so‘mdan 16 million 500 ming so‘mgacha) miqdorda jarima solishga sabab bo‘ladi.

Faoliyatning ayrim turlarini litsenziyalashni amalga oshirish, ruxsat etish xususiyatiga ega hujjatlarni berish yoki maxsus elektron tizim vositasida xabarnomalarni qabul qilish vakolatlari yoki ro‘yxatga olish yoxud akkreditatsiyadan o‘tkazish vakolatlari berilgan davlat unitar korxonalari yoki muassasalari yoxud yuridik shaxslarning birlashmalari tomonidan raqobatni cheklaydigan qarorlar qabul qilish BHMning 30 baravaridan 50 baravarigacha (9 million 900 ming so‘mdan 16 million 500 ming so‘mgacha) miqdorda jarima qo‘llanishga asos bo‘ladi.

Raqobatga qarshi bitim (kartel kelishuvi) ishtirokchisi kelishuv yoki til biriktirish fakti haqida monopoliyaga qarshi organni ixtiyoriy ravishda birinchi bo‘lib xabardor qilsa, u javobgarlikdan ozod etiladi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, ushbu qonun monopolist korxonalar, tabiiy monopoliya subyektlari va boshqa xo‘jalik yurituvchi subyektlar va ularning mansabdor shaxslarining raqobatga qarshi harakatlarini cheklaydi, raqobatga qarshi harakatlar sodir etilgan taqdirda, qonunchilikka muvofiq tegishli choralar ko‘riladi.

**- Tabiiy savol tug‘iladi, deylik, murojaat asosida qandaydir huquqbuzarlik (mayli, jinoyat demaylik) holati aniqlandi. Bunda boshqarma tegishli baho berish uchun huquqiy idoralarni xabardor qiladimi?**

- Albatta, o‘rganishlar davomida turli holatlarga guvoh bo‘lamiz. Misol uchun, “Innovatsion Servis” MCHJ gaz iste’molini hisobga oluvchi “Avtopilot PRO” elektron gaz hisoblagich o‘rnatganligi, har oyda hisoblagich arxiv ma’lumotlari asosida ikki tomonlama dalolatnoma tuzilib, hisob-kitob qilib kelinayotganiga qaramasdan, “Hududgaz Samarqand” gaz ta’minoti filiali tomonidan haqiqatda ishlatilmagan tabiiy gaz uchun to‘lov hisoblanayotganligi to‘g‘risida murojaat qilgan.

Holat yuzasidan hududiy boshqarma maxsus komissiyasi tomonidan “Hududgaz Samarqand” gaz ta’minot filialiga nisbatan ish qo‘zg‘atildi.

Ko‘rib chiqish natijasida “Hududgaz Samarqand” gaz ta’minot filialiga qarashli Paxtachi GTS Paxtachi-3 sanoat tarmog‘idan 2022-yil yanvar oyida olingan tabiiy gaz hajmi va sanoat tarmog‘iga ulangan ulgurji iste’molchilar gaz sarfi o‘rtasida yuzaga kelgan tafovut iste’molchilarning iste’mol hajmiga nisbatan proporsional tarzda taqsimlanganligi aniqlangan.

Ko‘rsatmamizga asosan “Innovatsion Servis” MCHJga asossiz hisoblangan 6406 metr kub tabiiy gaz hajmi qayta hisob-kitob qilindi.

Shu o‘rinda aytib o‘tish lozim, hududiy boshqarma vakolatlari doirasida xo‘jalik yurituvchi subyektlar, davlat boshqaruvi va mahalliy davlat hokimiyati organlari, shuningdek, jismoniy shaxslar tomonidan qonun hujjatlari buzilganligi to‘g‘risida ish qo‘zg‘aydi va ularni ko‘rib chiqadi. Qonun hujjatlarining buzilishi yuzasidan tabiiy monopoliya subyektlariga bajarilishi majburiy bo‘lgan ko‘rsatmalar beradi.

Qonunlarning buzilish holatlari yuzasidan huquqiy baho berish bo‘yicha biron-bir organni xabardor qilish belgilanmagan.

**- Qonunchilikda sizlarga yangi vakolatlar ham berildi-ku.**

- Yangi tahrirdagi qonunga ko‘ra, tadbirkorlik subyektlari o‘rtasida raqobat muhitiga salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin bo‘lgan davlat tomonidan ko‘rsatilayotgan yordamni baholash tizimi joriy qilinadi.

Bundan tashqari, raqamli platformalarni ham monopoliyaga qarshi tartibga solish imkoniyati yuzaga keldi. Shu bilan birga, insofsiz raqobatning yangi turlarini aniqlash va qonunbuzilishlarni bartaraf etish imkoniyati yaratiladi.

**Y.MARQAYEV suhbatlashdi.**

*Bizning suhbat*



# KAMBAG‘ALLIKDAN CHIQARISH UCHUN

## IMTIYOZ YOKI SUBSIDIYA YETARLI BO‘LMAYDI...

**Past Darg‘om tumani Joulqosim mahallasi hokim yordamchisi Jahongir Normo‘minov bilan suhbat**

**- Mahallada hokim yordamchisi sifatida faoliyat boshlaganingizga bir yarim yil bo‘ldi. Oldingizga qo‘yilgan maqsad va vazifalarni bugungacha qay darajada uddalay oldingiz?**

- Ochig‘ini aytganda, bu tuzilma tashkil etilib, sohadan kadrlar tanlab olinayotganida ko‘pchilik, shu qatori o‘zim ham issiq o‘rnimni sovutgim yo‘q edi. Vaholanki, bu vazifaga qo‘yilgan kadrlarga yetarlicha imtiyozlar berildi, avval ishlab turgan lavozim maoshlari saqlab qolindi. Buni o‘sha paytda tuzilma maqsad-mohiyatini yetarlicha anglab yetmaganimdan, deb o‘ylayman. Yillar davomida mahallalarda iqtisodiy va ijtimoiy muammolar yig‘ilib qolgan edi. Bevosita davlatimiz rahbarining tashabbusi bilan tashkil etilgan tuzilma faoliyatidan maqsad xalq ichiga kirib, ularning dardu tashvishlariga quloq tutish, aholi muammolarini ichkaridan o‘rganib, buni bartaraf etish bo‘ldi.

Qolaversa, har qanday yangilik tizimda tezda o‘z o‘rnini topib ketavermaydi. Tizimda kamchiliklar uchrayotgani, bu, vaqt masalasiga bog‘liq. Ayrim kishilar davlatning ijtimoiy ko‘magi mohiyatini tushunmay, aksincha, boqimandalik kayfiyatiga tushib qolishidan ham bunday salbiy fikrlar yuzaga chiqyapti. Ba’zan esa joylarda o‘z ishini yaxshi bilmagan hokim yordamchilari imtiyozli kreditlar ajratishni maqsadli va manzilli yo‘lga qo‘ymagani oqibatida ham shunday tushunmovchiliklarga duch kelyapmiz.

**- Manzilli va maqsadli ko‘mak, dedingiz. Buni faoliyatingizda qanday amalga oshiryapsiz?**

- Bu vazifaga o‘tganimcha tuman Savdo-sanoat palatasi rahbari vazifasida ishlaganman. Hozirgi ishimda bu menga katta tajriba vazifasini o‘tayapti. Tajriba va kuzatuvlarim asosida shunday xulosaga keldim: faqat imtiyozli kredit yoki subsidiya mablag‘lari ajratish aholini kambag‘allikdan chiqarish uchun yetarli bo‘lmaydi. Shuning uchun kambag‘al oilalarni qo‘llab-quvvatlash, ularning bandligini ta’minlash, tadbirkorlikka yo‘naltirish bo‘yicha eng avval ishni ularni tadbirkorlikning turli yo‘nalishlari va kasblarga o‘qitishdan boshlash lozim. Kambag‘allik holatlarining kelib chiqishi, birinchi navbatda, doimiy ishning yo‘qligi, ya’ni ishsizlik, ma’lumotga ega bo‘lmaganlik, shuningdek, tadbirkorlik qilish uchun bilim va malakalarning yetishmasligidandir. Misol uchun, mahallamiz aholisi orasida kambag‘allik holatiga tushgan oilalarning aksariyati ularning biron-bir ishni boshlashi uchun shu sohaga qiziqishi va tushunchasi yo‘qligidan kelib chiqyapti. Shu paytgacha tadbirkorlikni rivojlantirishga turtki beradigan sohalarning rivojlanmaganligi ham bunga sabab deyish mumkin. Maqsadni to‘g‘ri qo‘yib, ilm asosida aholini tadbirkorlik qilish bo‘yicha to‘g‘ri yo‘naltira olsak, mahallada barcha fuqarolar uchun ish o‘rni va daromad manbaini yaratishga imkoniyat mavjud aslida.

**- Xotin-qizlar ishsizligi og‘riqli masala. Ayniqsa, chekka hududlarda bu ijtimoiy muammolarning ildiziga aylangan.**

- Faoliyatimizning katta qismi ham shu bilan bog‘liq. Ijtimoiy daftarlarda turgan xotin-qizlarni tikuvchilik kurslarida o‘qityapmiz. Ko‘pincha uyda bichish-tikish uchun tikuv mashinkasi olishga subsidiya so‘rashadi. Uyida shunday sharoit qilib berish ham mumkin. Ammo yil davomida qo‘ni-qo‘shnining buyurtmasini kutib o‘tirib, daromad qilib bo‘lmaydi. Qolaversa, kam daromadli, aholi zich bo‘lmagan chekka hududlarda bunday buyurtmalar ko‘p emas. Shuning uchun biz asosan o‘z bozoriga ega bo‘lgan tadbirkorlarga kooperatsiya qilib berish va ishbay haq oladigan tarmoq yaratyapmiz. Shu maqsadda tuman markazida joylashgan tikish-bichishga moslashgan “Beka Charos” xususiy korxonasi bilan hamkorlikni yo‘lga qo‘ydik. Ijtimoiy daftarlarda turgan xotin-qizlar ularda qisqa muddatda ish o‘rganganidan so‘ng mahallada korxonaning filialini ochishni maqsad qilganmiz. Bunda buyurtmalar bilan tadbirkor shug‘ullanadi, tikuvchi o‘z ishi bilan band bo‘ladi. Yashirishning hojati yo‘q, oilaviy ajrimlarning ko‘pi iqtisodiy qiyinchiliklarga borib taqaladi. Shuning uchun oilada ayol kishi ham ishli bo‘lsa, bunday ijtimoiy muammolar kamayadi.

**- Imtiyozli kreditlar hokim yordamchilari kafilligi asosida berilyapti. Bu mas’uliyat ham yuklaydi, to‘g‘rimi?**

- Muvaffaqiyatli biznes-reja kredit qaytarilishining kafolati hisoblanadi. Imtiyozli kredit olmoqchi bo‘lgan fuqarodan birinchi navbatda maqsadini so‘rayman, tadbirkorlik loyihasini ko‘raman. Tadbirkor bo‘lish uchun biznes g‘oyaning o‘zi yetarli emas. Birgalashib, ba’zan mutaxassis jalb qilib, ishlab chiqarmoqchi bo‘lgan mahsulotga talabni o‘rganib, olinayotgan mablag‘ning maqsadli ishlatilishiga ishonch hosil qilganimizdan so‘ng kredit ajratamiz. Oddiygina issiqxona qurish uchun ham aniq hisob-kitoblar zarur. Shuningdek, issiqxona qilishni maqsad qilgan kishida qishloq xo‘jaligida ko‘nikma bo‘lishi lozim.

O‘tgan yil dekabr oyida ishsizligi sabab Samariddin Rahmonovga 24 million so‘m imtiyozli kredit evaziga tomorqasining 3 sotixida issiqxona tashkil qildik. Mart oyida pomidor ekdi, hozir mehnati ortidan ro‘zg‘orini butlab, kreditni ham o‘z vaqtida to‘layapti.

**- Faoliyatingizda aholida tadbirkorlik ko‘nikmalarini shakllantirish ham nazarda tutilgan...**

- Tadbirkorlik istagidagi fuqaroni to‘g‘ri yo‘naltirish juda muhim. Ish o‘rni yaratish maqsadida mahallamizda faoliyat olib borayotgan “Turg‘un darvozalari” mas’uliyati cheklangan jamiyatiga 90 million so‘m imtiyozli kredit ajratdik. Mahalladan joy ajratilib, xomashyo olib berildi. Shundan so‘ng bu yerda ish hajmi ortib, 5 nafar ishsiz fuqaroning bandligi ta’minlandi. Bu bilan beshta oilaning qozoni qaynay boshladi.

Mahallada ish boshlaganimda 18 nafar tadbirkor faoliyat yuritar edi. Hozirda 74 ta yakka tartibdagi tadbirkor va 60 ta yuridik korxona ishlab turibdi. Bularning asosiy qismi imtiyozli kreditlar hisobidan. Xususan, 31 ta savdo, 20 ta sanoat, 3 ta xizmat ko‘rsatish, 3 ta qurilish va 3 ta qishloq xo‘jalik sohasida korxonalar aholi bandligini ta’minlashda muhim o‘ringa ega.

Mahalladagi tadbirkorlardan biri G‘iyos A’zamov 5-6 metr kvadrat maydonda biogomus yetishtirar edi. Qarasam, ishining ko‘zini biladigan kishi. Unga oilaviy korxona tashkil etishda ko‘maklashdim. O‘z ishini qo‘ni-qo‘shnilarga ham o‘rgatdi. Hozir biogomus yetishtirishda tumanimizda ta’minotchiga aylandi. Uning yana bir hunarini keng joriy etdik. 30 million so‘m imtiyozli kredit ajratib, quduqlar uchun beton devorlar va ularga mo‘ljallangan qoliplar tayyorlashni yo‘lga qo‘ydi. Bu soha hozirda mahallaning asosiy drayveriga aylandi. Ko‘p xonadonlarda quduqlar uchun maxsus beton devorlar tayyorlanyapti. Asosiysi, tadbirkorning faoliyatini rivojlantirish orqali 10 nafar ishsiz yoshning bandligi ta’minlandi.



Ba’zan tadbirkorlik subyektlarini tashkil qilishda hududdagi infratuzilmaning ham o‘rni muhim. Chekka hududlarda esa bu sohada muammolar bor. Bu jabhaga butunlay bog‘liq bo‘lgan ayrim korxonalar mahallamizda tashkil etilsa-da, tuman markazida faoliyat ko‘rsatishga majbur bo‘lyapti. Bu muammolar ham o‘z vaqtida hal etilsa, aholining yashash sharoiti ham yaxshilanar edi.

**Sulaymon MARDIYEV suhbatlashdi.**

# Xalq qoziligidan harbiy sudgacha

## Tizimdagi islohotlarga bir nazar

**Qadimda ham davlat sarhadlarini qo‘riqlovchi askarlarning qat’iy tartib-intizomga amal qilishi muhim sanalgan. Agar u qonunni buzsa yoki intizomga amal qilmasa, ish javobgarlik choralarini ko‘ruvchi mansabdor shaxslarga yuborilgan. Tarixga nazar solsak, harbiy xizmatchilarning ishi o‘sha vaqtda xalq qozilari, askariy sudlar, harbiy dala sudlari, harbiy tribunallarning qozi (sudya)lari tomonidan ko‘rilganini ko‘rish mumkin.**

1992-yil 28-fevralda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Harbiy tribunallar va Harbiy prokuratura organlari to‘g‘risida”gi farmoni imzolandi. Unga ko‘ra, O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarida qonuniylik va huquq-tartibotni ta’minlash maqsadida O‘zbekiston Respublikasining sud tizimida sobiq Turkiston harbiy okrug harbiy tribunali negizidagi O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari harbiy sudi tashkil qilingan hamda ularning shaxsiy tarkibiga harbiy xizmatchi maqomi berilib, moddiy va texnik jihatdan ta’minoti O‘zbekiston Respublikasining Mudofaa vazirligi tomonidan amalga oshirilishi belgilangan.

1999-yil 23-sentabrda esa O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasi Harbiy sudini tashkil qilish to‘g‘risida”gi farmoni qabul qilinib, u asosida O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarining harbiy sudi negizida O‘zbekiston Respublikasi Harbiy sudi tashkil qilingan.

O‘zbekiston Respublikasining “O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga o‘zgartish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida”gi (2003-yil 24-aprel) 470-II-sonli Qonuni bilan Konstitutsiyamizning 107-moddasida umumiy yurisdiksiya sudlari qatorida harbiy sudlar ham ko‘rsatib o‘tildi. Bu respublikamizda harbiy odil sudlovning konstitutsiyaviy asoslarini mustahkamladi.

Prezidentning 2017-yil 21-fevraldagi “O‘zbekiston Respublikasi sud tizimi tuzilmasini tubdan takomillashtirish va faoliyati samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi farmoniga muvofiq, 2017-yil 1-iyundan O‘zbekiston Respublikasi Harbiy sudi, okrug va hududiy harbiy sudlarning 159 ta shtat birligi qisqartirilib, qo‘riqlash vzvodi tugatildi. Shu hujjat bilan O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudining Harbiy hay’ati ham tugatilib, O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudining ma’muriy ishlar bo‘yicha sudlov hay’ati tashkil etildi.

Hozirgi kunda harbiy sudlarning tarkibiy tuzilmasi viloyat sudlariga tenglashtirilgan O‘zbekiston Respublikasi Harbiy sudi hamda tuman(shahar) sudlariga tenglashtirilgan Toshkent, Samarqand, Farg‘ona, Qarshi va Nukus hududiy harbiy sudlaridan iborat.

O‘zbekiston Respublikasining 2021-yil 28-iyul kuni qabul qilingan “Sudlar to‘g‘risida”gi Qonunining 45-moddasida O‘zbekiston Respublikasi harbiy sudlari O‘zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligining, Davlat xavfsizlik xizmatining, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti davlat xavfsizlik xizmatining, Milliy gvardiyaning, Favqulodda vaziyatlar vazirligining, Ichki ishlar vazirligi qo‘shinlarining va qonunchilikka muvofiq tashkil etiladigan boshqa harbiy tuzilmalarning harbiy xizmatchilari, shuningdek, o‘quv yig‘inlarida bo‘lgan vaqtda harbiy xizmatga majburlar tomonidan sodir etilgan jinoyatlar to‘g‘risidagi ishlarni ko‘rishi mumkinligi belgilangan. Shuningdek, ular harbiy qismlar, qo‘shilmalar va birlashmalarning, harbiy boshqaruv organlarining qo‘mondonligiga nisbatan harbiy xizmatchilarning da’volari bo‘yicha fuqarolik ishlarini hamda harbiy boshqaruv organlari qarorlari, harbiy mansabdor shaxslarning harbiy xizmatchilarning huquq va erkinliklarini buzuvchi xatti-harakatlari (harakatsizligi) ustidan shikoyatlarni, alohida holatlar tufayli sudlar faoliyat ko‘rsatmayotgan joylarda barcha fuqarolik va jinoyat ishlarini, qonun bilan o‘z vakolatiga kiritilgan ma’muriy huquqbuzarliklar to‘g‘risidagi ishlarni, davlat sirlariga taalluqli hamda qonunga muvofiq boshqa ishlarni ham ko‘rishga vakolatli.

Hozirgi kunda harbiy sudlar, xususan, Samarqand harbiy sudi tomonidan ham Samarqand harbiy prokuraturasi, Markaziy harbiy okrug qo‘mondonligi, viloyat favqulodda vaziyatlar boshqarmasi, O‘zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi viloyat hududiy boshqarmasi bilan hamkorlikda harbiy xizmatchilar orasida tartib-intizomni ta’minlash, ularning huquq va erkinliklari poymol bo‘lishining oldini olish, bu sodir bo‘lgan taqdirda uni tiklash choralari ko‘rilib, tegishli targ‘ibot-tashviqot va boshqa tadbirlar amalga oshirib kelinmoqda.

**Bahriddin AHMEDOV,**
**Samarqand harbiy sudining raisi.**

# Faxriylar e'tiborda

Vladimir Rogov butun umrini sportga bag'ishlagan fidoyi inson, viloyatda voleybol sportining rivojlanishiga munosib hissa qo'shgan sportchi, trener.



- Vladimir Alekseyevich qo'lga kiritgan yutuq va sovrinlar ortida mashaqqatli mashg'ulotlar, og'ir sharoitdagi raqobatli musobaqalarda g'alaba uchun qilingan mehnat yotadi, - deydi viloyat sport faxriylari kengashi raisi Hamroqul Rafiyev. - Sportchi to'rt yoshidaligida otasi frontga olib ketilgani, og'ir va tahlikali davrda yashaganlarini ko'p eslaydi. Uning har bir xotirasi, erishgan yutuqlari va trenerlik faoliyati yoshlarga ibrat bo'lib kelmoqda.

85 yoshni qarshilayotgan sportchi o'z davrida voleybol bo'yicha O'zbekiston terma jamoasida yurtimiz sharafini himoya qilib, yutuqlarga erishgan va ko'plab sportchilarga ustozlik qilgan. Faoliyati davomida "O'zbekiston SSR sport faxriysi", "O'zbekiston xalq ta'limi a'lochisi", "O'zbekiston sport faxriysi" ko'krak-nishonlari bilan taqdirlangan.

Vladimir Rogov ayni paytda Kattaqo'rg'on shahrida yashaydi. Otaxon doim e'tiborda. Yubiley arafasida faxriy sportchining holidan xabar olinib, viloyat hokimligining tashakkurnomasi va esdalik sovg'alari topshirildi.

# Ishbilarmon ayollar aniqlandi

**Samarqand shahrida "Ishbilarmon ayol-2023" ko'rik-tanlovining viloyat bosqichi o'tkazildi.**

O'zLiDeP Samarqand viloyat kengashi tomonidan o'tkazilgan ko'rik-tanlov doirasida 16 ta tuman, shahar bosqichlari tashkil etilib, unda 562 nafar tadbirkor, fermer, hunarmand, ishlab chiqarish sohasi vakillaridan iborat xotin-qizlar ishtirok etdi. Ularning 48 nafari tanlovning viloyat bosqichiga yo'llanma oldi.

- Tanlov jarayonida ishtirokchi xotin-qizlar faoliyatini baholashda tanlov nizomiga asosan, ularning zamonaviy ishlab chiqarishni yo'lga qo'yish orqali yangi ish o'rinlarini yaratgani, eksportga yo'naltirilgan yoki import o'rnini bosadigan mahsulot ishlab chiqarish, partiyamiz tomonidan tashkil etilayotgan tadbirlardagi faolligi, o'z faoliyatida uchrayotgan to'siq va g'ovlarni qay darajada bartaraf eta olayotgani kabi masalalarga ham alohida e'tibor qaratildi, - deydi O'zLiDeP viloyat kengashi raisining ayollar masalalari bo'yicha o'rinbosari J.Sayfidinova. - Shuningdek, "Ishbilarmon ayol-2023" ko'rik-tanlovining viloyat bosqichi doirasida o'tkazilgan tadbirda ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar mazmun-mohiyatini xotin-qizlarga yetkazish, ularni tadbirkorlikka yo'naltirish, ko'p tarmoqli fermer xo'jaliklarini ko'paytirish, tadbirkorlik rivojiga to'siq bo'layotgan muammolarni aniqlash va ularning yechimiga qaratilgan amaliy taklif hamda tavsiyalar ishlab chiqildi.



Ko'rik-tanlov yakuniy xulosasiga ko'ra, birinchi o'ringa Toyloq tumanidagi "Anvar Aziza Invest" fermer xo'jaligi boshlig'i Tavsiya Xayrullayeva, ikkinchi o'ringa Past Darg'om tumani "Mehribon shirinliklari" korxonasi rahbari O'g'iloy Ergasheva, uchinchi o'ringa bulung'urlik hunarmand Gulsara Qudratova munosib ko'rildi.

G'oliblar endi "Ishbilarmon ayol-2023" tanlovining respublika bosqichida ishtirok etishadi.

**O'zLiDeP viloyat kengashi axborot xizmati.**

# Fozil JAMANOV



**Butun umrini yer tuzish va kadastr sohasi rivojiga bag'ishlagan inson – Fozil Jamanov 67 yoshida vafot etdi.**

F.Jamanov 1956-yilda Ishtixon tumanidagi Boytubi qishlog'ida tug'ilgan. 1974-yilda o'rta maktabni oltin medal bilan bitirib, Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalashtirish injenerlari institutiga o'qishga kirdi. Institutni yer tuzuvchi muhandis mutaxassisligi bo'yicha bitirib, yo'llanma asosida viloyat hokimligi qishloq xo'jalik boshqarmasi yer tuzish bo'limida muhandis vazifasida ish boshladi.

Viloyatimizda yer ajratish, qishloq xo'jalik maydonlarini saqlash, mulk sohasidagi rasmiylashtiruvlarda uning bilimi qo'l keldi. Bilimdon va soha fidoyisi bo'lgan F.Jamanov 2023-yilga qadar kadastr va yer tuzish sohasida faoliyat yuritdi. Dastlab ishni mutaxassis sifatida boshlab, yetakchi mutaxassis, otryad boshlig'i, bo'lim boshlig'i vazifalarida ishladi. O'z ishining yetuk mutaxassisi sifatida bir muddat viloyat yer resurslari va kadastr boshqarmasiga rahbarlik qildi. 45 yillik ish faoliyati davomida yuzdan ortiq shogirdlar tayyorlab, ularga o'zining ko'p yillik ish tajribasi va bilimini o'rgatdi.

Fozil Jaynarovich qaysi vazifada faoliyat yuritmasin, o'zining bilimi va tajribasi bilan hamkasblariga namuna bo'lib mehnat qildi.

U o'zining mehnatsevarligi, mardligi va boshqa insoniy fazilatlari bilan obro'-e'tibor qozondi. F.Jamanov 4 nafar farzandning otasi, ajoyib oila boshlig'i, mehribon, samimiy do'st edi.

Uning porloq xotirasi hamisha qalbimizda saqlanadi.

**"Nuroniy" jamg'armasi viloyat bo'limi.**

# Imtiyozlardan foydalanmoqchi bo'lsangiz, kasaba uyushmasiga a'zo bo'ling!

**Viloyat Matbuot uyida tashkil etilgan matbuot anjumanida O'zbekiston kasaba uyushmalari Federatsiyasi viloyat kengashi raisi S.Rafiqov ishchi-xodimlarni ichki turizmga jalb etish borasida amalga oshirilayotgan ishlar to'g'risida ma'lumot berdi.**



Kasaba uyushmalari tizimida turizmni rivojlantirishga qaratilgan "O'zbekiston bo'ylab sayohat qiling" dasturi doirasida joriy yilning o'tgan davrida 8364 nafar xodim hamda ular oila a'zolarining sayohatlari tashkil etildi. Jumladan, Xorazmga 950 nafar, Toshkent shahriga 300 nafar ishchi-xodim va ularning oila a'zolari 2-3 kunlik sayohatga borib kelishdi. Xalqaro xotin-qizlar kuni munosabati bilan viloyatimizning olis qishloqlarida faoliyat yuritayotgan 900 nafar xotin-qiz uchun Samarqand shahri bo'ylab ziyorat hamda "Muqaddas ayol" nomli madaniy tadbir tashkil etildi.

- Joriy yilda 6 mingdan ortiq mehnatkashlarni sog'lomlashtirish rejalashtirilgan bo'lib, hozirgacha 2,5 ming nafar xodim sanatoriylarda dam olib, o'z sog'ligini tikladi, - deydi S.Rafiqov. - Shuningdek, ularning 1130 nafar oila a'zolari ham dam oldi. 116 nafar mehnat va urush faxriylari, baynalminalchi jangchi, chernobilchi hamda ijtimoiy himoyaga muhtoj oilalarning ishlovchi vakillariga, 49 nafar o'qituvchi va murabbiylarga bepul yo'llanmalar berildi.

Yoz mavsumida 16 ta oromgohda 9415 nafar bola dam oldirildi.

**Dilmurod TO'XTAYEV.**

REKLAMA, E'LONLAR, BILDIRISHLAR / Gazetamiz haftada uch marta - seshanba, payshanba va shanba kunlari chop etiladi / Gazetada chop etilayotgan reklama va e'lonlar tezkor, samarali va hamyonbop / MUROJAAT UCHUN TELEFON: 66-233-91-56

## Barcha yuridik va jismoniy shaxslar, shu jumladan, chet el investorlari diqqatiga!

**O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 24-martdagi "Iqtisodiyotda davlat ishtirokini qisqartirishning qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-102-son qaroriga muvofiq, davlat va davlat ishtirokidagi korxonalarning bo'sh turgan ko'chmas mulk obyektlari hamda ulushlari "E-auksion" elektron savdo platformasi orqali sotilishi belgilangan. Shunga ko'ra, quyidagi davlat mulki obyektlari bo'yicha**

# SAVDOLAR E'LON QILINADI

| T/r | Obyekt nomi | Balansda saqlovchi tashkilot nomi | Joylashgan manzili | Umumiy yer maydoni (ga.) | Bino va inshootlarning umumiy egallagan maydoni (kv.m.) | Savdolarga chiqarilgan boshlang'ich narxi (so'm) | Savdo sanasi | Ariza berishning oxirgi muddati |
|---|---|---|---|---|---|---|---|---|
| 1 | Bo'sh turgan bino va inshoot (A.Maxsumov FYOTSH) | "Maroqand neft baza" mas'uliyati cheklangan jamiyati | Samarqand viloyati Bulung'ur tumani, "Qirqshodi" MFY | 0,18 | 65,0 | 228 400 000,0 | 15.09.2023 y. | 15.09.2023 y. |
| 2 | Bo'sh turgan bino va inshoot (Gumbaz FYOTSH) | "Maroqand neft baza" mas'uliyati cheklangan jamiyati | Samarqand viloyati Past Darg'om tumani, "Navbahor" MFY | 0,1139 | 110,60 | 208 100 000,0 | 18.09.2023 y. | 18.09.2023 y. |

**Auksionda qatnashish tartibi to'g'risida:**

Ushbu obyektlarni "E-IJRO AUKSION" yagona elektron savdo platformasi orqali sotib olish Davlat aktivlarini boshqarish agentligi qoshidagi "Elektron onlayn auksionlarni tashkil etish" AJning "e-auksion.uz" sayt maydonchasida o'tkazilishi rejalashtirilgan. Savdolarda qatnashish istagida bo'lgan jismoniy va yuridik shaxslar xatlov va baholash ishlari yakunlangandan keyin "e-auksion.uz" saytida qoidalar bilan tanishgan holda ro'yxatdan o'tib, savdo jarayonlarida qatnashishlari mumkin.

Ro'yxatdan o'tgan jismoniy va yuridik shaxslar davlat xizmatlari markazi yoki "E-auksion" elektron savdo platformasi orqali elektron raqamli imzo sertifikatlarini olishi mumkin.

**Auksionda qatnashish uchun ariza berish:**

Ro'yxatdan o'tgan va elektron raqamli imzoga ega bo'lgan jismoniy va yuridik shaxslar "e-auksion.uz" saytida yaratilgan "Shaxsiy kabinet"lari orqali kirib, o'tkaziladigan auksionlar ro'yxatidan o'ziga kerakli obyekti tanlashi va u haqida tegishli ma'lumotga ega bo'lishlari mumkin. Auksion savdosiga qo'yilgan har bir mol-mulkka tizim o'ziga xos takrorlanmaydigan LOT raqami beradi.

Auksion savdosida qatnashmoqchi bo'lgan jismoniy va yuridik shaxslar bino haqidagi ma'lumotlarga ega bo'lib, shu yerda ko'rsatilgan bank rekvizitlariga ko'rsatilgan zakalat mablag'ini to'lagan (to'lov hujjatida auksiondagi LOT raqami ko'rsatilishi kerak) holda auksion savdosida qatnashish uchun elektron tarzda ariza berishlari lozim.

Elektron tarzda ariza berish jarayonida ishtirokchi tomonidan elektron raqamli imzo bilan imzolangan holda ariza yuboriladi. Ariza elektron tarzda yuborilgach, ishtirokchining "Shaxsiy kabineti"ga ariza qabul qilinganligi yoki qaytarilganligi to'g'risida javob xabari keladi. Auksion savdosida ishtirok etish uchun ariza berish saytda ko'rsatilgan muddatda to'xtatiladi.

**Auksion jarayoni:**

Ishtirokchilar tomonidan savdoda qatnashish uchun ariza berilgandan so'ng, savdo boshlanadigan kunda (vaqtda) ishtirokchilar "e-auksion.uz" saytida maxsus login va parollarini tergan holda "Shaxsiy kabinet"ga kiriladi va "Kabinet"ga o'tilgandan so'ng "Mening auksionlarim" bo'limidan qatnashmoqchi bo'lgan auksion tanlanadi.

Shunda dastur tomonidan "Ishtirok etishni tasdiqlash" so'raladi, ishtirok etish tasdiqlangandan so'ng savdo jarayonida ishtirok etish mumkin bo'ladi (auksion savdo o'tkazish kuni soat 10:00 da boshlanadi).

Auksionda qatnashuvchilarga dastur tomonidan alohida tartib raqam beriladi.

Auksionning boshlanishi ishtirokchilardan LOTni boshlang'ich narxdan bitta qadamga oshirilgan narxda sotib olish bo'yicha taklifni tasdiqlashni so'rashdan boshlanadi. Agar, taklif berilgandan keyin 10 daqiqa davomida auksion ishtirokchilaridan biri belgilangan qadamga oshirilgan LOT narxini tasdiqlasa, keyingi taklifni tasdiqlash uchun vaqt yana anadi. LOT narxi bo'yicha taklifni oxirgi tasdiqlagan ishtirokchi auksion g'olibi deb topiladi. Shundan so'ng ishtirokchiga g'oliblik bayonnomasi topshiriladi yoki ishtirokchi bilan kelishgan holda pochta jo'natmasi orqali yuboriladi.

Savdolar natijalari bo'yicha g'oliblik bayonnomasi Davlat aktivlarini boshqarish agentligi Samarqand viloyati hududiy boshqarmasiga taqdim etilgan sanadan boshlab 10 kundan kechikmay oldi-sotdi shartnomasi tuziladi.

Auksionda ishtirok etgandan so'ng g'olib bo'lmagan ishtirokchilarga zakalat pullarini ishtirokchilarning elektron tarzda bergan arizalariga asosan ko'rsatilgan hisob raqamga qaytarib beriladi yoki keyingi savdolarda qatnashish uchun o'tkazilishi mumkin.

**Qo'shimcha ma'lumotlarni olish uchun manzil: Samarqand shahri Kamol Otaturk ko'chasi, 21-uy. Davlat aktivlarini boshqarish agentligi Samarqand viloyati hududiy boshqarmasi davlat aktivlarini sotishga tayyorlash va sotish ishlarini muvofiqlashtirish bo'limi.**

**Ma'lumot uchun telefonlar:** 66-233-96-64, 99-447-17-70
**Faks:** 66-233-73-54
**"Facebook"dagi rasmiy sahifa:** Sam Dav Aktiv
**Veb-sahifa:** privatization.davaktiv.uz
**Internet tarmog'idagi veb-sayt:** samarqand@davaktiv.uz

## DA'VOLAR BO'LSA...

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Rahimova Komila Faxriyevna notarial idorasida marhum Achilov Sultanmuratga (2022-yil 24-dekabrda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Rahimova Komila Faxriyevna notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

**Manzil: Samarqand shahri Abdurahmon Jomiy ko'chasi, 64-uy.**

* * *

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Bahromova Feruza Zoirovna notarial idorasida marhum Hotamov Ergashga (2004-yil 22-iyunda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Bahromova Feruza Zoirovna notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

**Manzil: Samarqand shahri Gagarin ko'chasi, 121-uy.**

* * *

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Bahromova Feruza Zoirovna notarial idorasida marhum Xashimov Diyar Kazimovichga (2023-yil 7-fevralda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Bahromova Feruza Zoirovna notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

**Manzil: Samarqand shahri Gagarin ko'chasi, 121-uy.**

* * *

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Bobomurodov Pirmamat Isomidinovich notarial idorasida marhum Sulxanov Alisher Achilovichga (2023-yil 7-fevralda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Bobomurodov Pirmamat Isomidinovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

**Manzil: Samarqand shahri Amir Temur ko'chasi, 108-uy.**

* * *

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Rahmonov Sarvar Ne'matilloyevich notarial idorasida marhum Ismailov Ismatga (2008-yil 20-oktabrda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Rahmonov Sarvar Ne'matilloyevich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

**Manzil: Samarqand shahri Gagarin ko'chasi, 60-uy.**

* * *

## BEKOR QILINADI

O'zbekiston Xalq demokratik partiyasi Past Darg'om tuman Kengashining asosiy muhri yo'qolganligi sababli bekor qilinadi.



***Shayx Najmiddin KUBRO (1145-1221), Sharq mutasavvuf donishmandi, mutafakkiri***

# Johilni dunyoga intilishda ko‘rdim

(«Faqirlik haqida risola»dan)

Dengizlar miqdori-yu tog‘lar og‘irligini biluvchi, og‘ir bulutlarni yuboruvchi (yomg‘ir yog‘diruvchi), ikki dunyo ishlarini boshqarib turuvchi, rizq va umrni o‘lchab beruvchi, fazl, hurmat va ulug‘lik egasi, kamollik sifatlari ila sifatlangan, kamchilik va zavoldan xoli, kufr va zalolat ahlining gap-so‘zlaridan (bo‘htonlaridan) pok Allohga hamdu sanolar bo‘lsin.

U (boqiy) tirik zotdirki, undan o‘zga iloh yo‘qdir.

U ulug‘, buyukdir. Uning sherigi ham, o‘xshashi ham yo‘q.

Allohdan o‘zga iloh yo‘qligiga uning yagonaligi va sheriksizligiga, o‘lgandan keyin tirilishiga, qiyomat va unda savol-javob bo‘lishiga ishongan kishidek guvohlik beraman. Yana shunga guvohlik beramanki, Muhammad Uning bandasi va elchisidir. U rostgo‘y, odobli va xushxulqdir. Alloh uni, oilasini va sahobalarini rahmat qilsin.

Siz mendan (Alloh sizni muvaffaq qilsin) Alloh taoloning menga bergan faqirlik ne’matini tushuntirmog‘imni hamda o‘z qalbim ko‘zlari bilan ko‘rganim — Allohning xususan, menga, umuman, faqir bandalariga qilgan ajoyib ehsonlari (yaxshiliklari) haqida so‘zlab bermog‘imni so‘ragan edingiz. Javob berishga shoshildim-da, qalbim va xotiram varaqalaridan Alloh meni xoslagan (xususan, mengagina bergan) va ularni to‘plashimga ilhom bergan ayrim narsalarni naql qildim.

Dunyoning bir qismini kezib chiqdim, ko‘p ishlarni tajriba qildim, qiyinchiliklarga yo‘liqdim, kishilar bilan suhbat qurdim, ulug‘ ishlarga qadam bosdim, tirikchilikning achchiq-chuchugini totdim, kitoblarga murojaat qildim, olimlar xizmatida bo‘ldim, umrimni dunyo izlash bilan zoye o‘tkazmadim, ajoyibotlarni ko‘rdim.

Ko‘rdimki, umr va dunyodan ko‘ra tez, shoshilib yo‘q bo‘lib ketadiganroq, o‘lim va oxiratdan ko‘ra yaqinroq, orzudan ko‘ra uzoqroq, xotirjamlikdan ko‘ra go‘zalroq narsa yo‘q ekan, dunyoyu oxirat yaxshiligini qanoatda, dunyoyu oxirat yomonligini esa ta’mada ko‘rdim.

Ko‘rdimki, vaqtini «esiz», «qaniydi», «koshkiydi»lar bilan o‘tkazgan kishining umri eng qisqa umr ekan.

Eng go‘zal bezak tavoze, eng xunuk narsa esa bu baxillik ekan. Xusni xulq (chiroyli xulq)dan ko‘ra yaxshilik ustiga yaxshilikni qo‘shadiganroq, hasaddan ko‘ra yomonlik ustiga yomonlikni qo‘shadiganroq narsani ko‘rmadim.

Iltimosga qolgan kunda g‘ayri tabiiy (majburiy) o‘limni, o‘z holatini yashirish va ta’masizlikda esa barhayotlikni ko‘rdim. Muvaffaqiyatni sa’yi harakatda, muvaffaqiyatsizlikni esa loqaydlik va dangasalikda, baloni tilda, halovatni esa sukutda ko‘rdim.

Ochko‘zni mahrum, dunyoparastni g‘amgin ko‘rdim. Ayolmand kishini ko‘milgan ko‘rdim, moldor odamni bechora ko‘rdim.

Ko‘rdimki, eng noyob ne’mat rostgo‘ylik va qahramonlik, eng og‘ir og‘riq esa yomon va munofiq do‘stlar ekan.

Ko‘rdimki, Alloh dunyo qulligidan ozod qilgan kishigina haqiqiy hur ekan.

Xoru zorlikni «mahluq»lar xizmatida, azizu mukarramlikni esa Xoliq xizmatida bo‘lishda ko‘rdim.

Podsholar qalblaridan-da qattiqroq diyda, kambag‘al uchun yamoqlarni bir-biriga ulashdan ko‘ra chiroyliroq ziynat ko‘rmadim.

Eng yaxshi sarhisobni (savol-javobni) kishining o‘z nafsi bilan hisoblashishida, oqilni oxiratga, johilni dunyoga intilishda ko‘rdim.

Qiziquvchini (ko‘ngil bergani bilan) mashg‘ul, zohidni esa bekoru forig‘, xohlovchini izlayotgan, da’vogarni yolg‘onchi ko‘rdim.

To‘g‘riso‘zlilikdan ko‘ra go‘zalroq ziynatni ko‘rmadim. Alloh sanad (hujjat, dalil)larining hammasida Allohning o‘zini ko‘rdim.

Nafsni sharmandalik va do‘zax sari (odamlarni) haydashda, aqlni esa yaxshiliklarga chorlashda ko‘rdim.

Ko‘rdimki, o‘z-o‘zini tarbiyalay olgan va shahvatlardan tiyila olgan kishi eng kuchli shaxs ekan.

Umr va rizqning barakali bo‘lishini Alloh taologa itoat qilishda ko‘rdim.

Dunyoyu oxirat yaxshiligini Rasul alayhissalomning sunnatiga ergashishda ko‘rdim.

Ne’matning to‘la, mukammal bo‘lishini ne’mat beruvchidan minnatdor bo‘lishda ko‘rdim.

Ko‘rdimki, eng yaxshi do‘st ilm ekan.

Ochko‘zlik va gunohkorlik domiga mahkumlarni, isrofgarlarni ko‘rdim, ammo o‘zimdan ko‘ra yomonrog‘ini ko‘rmadim.

Jannatga kirishni halol yeyish va mahol (amrimahol – bajarib bo‘lmaydigan ish)ni tark qilishda ko‘rdim. Do‘zaxga yo‘lni esa havoyi nafsda ko‘rdim.

Ko‘rdimki, shaytonning xaloyiqqa sulton bo‘lib olishi dunyoni yaxshi ko‘rishlikdan ekan. O‘liklardan ularning holatlari, (qolgan) uylari va molu davlatlaridan ibratlanmagan kimsalarni nodonlikda, Alloh belgilab qo‘ygan hadlardan oshgan kimsalarni esa baxtsizlikda ko‘rdim.

Ko‘rdimki, insonga keladigan barcha ofatlar tildan ekan.

Shariat va dinning poydevori sabr va ishonch ekan.

Ibodatlarning eng afzali farzlarni ado qilish, odatlarning eng ma’quli va chiroyligi esa gunohlardan, odamlarga ozor berishdan tiyilish ekan.

Eng yaxshi behojatlik (tama’sizlik) noumidlik ekan. Alloh taoloni yodlashdan keyingi eng yaxshi eslashlik bu o‘limni eslash ekan. O‘limdan og‘irroq kulfat o‘tgan ishga pushaymonlikda ekan.

Nafs ma’sumligining payg‘ambarlargagina, qalb hayotiyligining esa avliyolargagina xosligini ko‘rdim.

Tinchlik va rohatni izlab, ularni dunyoni tark qilishdan topdim. Alloh azza va jalla bilan uns (yaqinlik,chin do‘stlik) bo‘lishni xohlab, uni odamlardan uzlatga chiqishdan topdim.

Shaytonga qarshi chiqishni xohlab, uni o‘z nafsimga qarshi bo‘lish va unga dushmanlik qilishdan topdim...

Bildimki, Alloh haqida yaxshi o‘yda bo‘lish Allohdan tilagan eng katta tilagim bo‘ldi.

Ko‘rdimki, ekmagan o‘rmaydi. Shafqat qilmaganga shafqat qilinmaydi. Kimki kecha va kunduz kemasiga minsa, u kema yo jannat, yo do‘zaxga olib boradi. Aldanishdan saqlaning! Saqlaning!

Barcha xalifayu podshohlarni, shon-shavkatli, qudratli sultonlarni o‘z dabdabalari bilan mashg‘ul bo‘lib, o‘zlaridan va o‘zlariga sodir bulayotgan narsadan bexabarlikda ko‘rdim. Ularni gunohkorlik domiga mahkum ko‘rdim, ularni gunohlardan, odamlarga ozor berishdan tiyilishga chorladim. Shafqat qilmaganga shafqat qilinmasligini aytdim.

Ko‘rdimki, Odam alayhissalomdan tortib (Qiyomat kuni farishta Isrofil chaladigan karnay) surga dam urilgunga qadar bo‘lgan hamma xalq bir chumoli oyog‘ining sinig‘ini ham tuzatishdan ojizdirlar. Hamma fuzalo, fusaho, munajjimu bilimdonlarni bir chivin qanotini yaratishdan ham ojiz, boshi aylangan, nochor... o‘z ojizligi va nuqsonini tan olgan ko‘rdim.

Bas, yaratish, buyurish, bilim va qudrat sohibi har qanday nuqsondan pokdir. Xo‘jayinlikda sheriksiz bo‘lgan eng go‘zal yaratuvchi Alloh muborakdir. U abadiy barhayotdir. Undan o‘zga iloh yo‘q. U narsalarni bor qilgan, Yeru osmonni bezagan, Arshu Kursini yaratgan, insu jinga rizq bergan, adolatli bo‘lishda o‘qib o‘rganishga muhtoj bo‘lmagan, xohlaganga hukm yurituvchi, xohlaganini qiluvchi, chirigan-to‘zigan suyaklarga hech bir asbob-uskunasiz jon ato etuvchi, tiriklarni o‘ldiruvchi, o‘liklarni tiriltiruvchi, vaqt va ajallarni belgilovchi, hisu harakotni eshitguvchi, chumolining o‘rmalashi-yu eng maxfiy ovozlardan-da, qo‘yin-ki, barcha siru maxfiyotdan-da xabardor zotdirki, Yeru osmonlardagi bironta narsa unga noma’lum emas.

Allohga, Uning farishtalariga, kitobalariga, payg‘ambarlariga, o‘lgandan keyin tirilishga, shafoatga, jannat, do‘zax, qabr, so‘roq-savol, havz-Kavsar, mezon (tarozu), sirot (ko‘prik)ga, kofirlarning do‘zaxda abadiy qolishiyu mo‘minning jannatda abadiy qolishiga, bandalar ustidan adolatli hukm chiqarilishiga, qat’iy qaror bilan yerda sodir bo‘lgan zulmlarning qaytarilishiga (zolimdan mazlumning o‘ch olishiga) jannatdagi ne’matu do‘zaxdagi alamli azobga, Allohning o‘z do‘stlariga qilgan, jannatda bo‘ladigan va’dasiga, eng mukarram yuz bo‘lmish Allohning yuzini ko‘rishga, Alloh o‘zining puxta kitobidan aytgan vadi’i(amonat)ga, saodatmandga mukofotu badbaxtga jazo berishiga, amru nahyiga (buyruq va ta’qiq), xabarlaru qissalarga, masallaru hukmlarga, halolu haromga, muhkamu mutashobih oyatlarga, xullas, bizga bayon va tafsir qilib berganining hammasiga imon keltirdik.

Bilamizki, Payg‘ambar alayhissalomning payg‘ambarligi haqdir. Iso ham Allohning bandasi va payg‘ambaridir. Shuningdek, Odam ham payg‘ambardirki, Alloh uni tuproqdan yaratib, «bo‘l» degan edi, bo‘ldi...

Nabiy alayhissalomdan keyin odamlarning yaxshisi Abu Bakr, keyin Umar, keyin Usmon, keyin Alidir (Alloh ulardan rozi bo‘lsin). Biz u kishining pokiza, ma’sum oilalarini sevamiz, Alloh bu oiladan ifloslikni ketkazsin, ularni poklasin.

Shunga iqrormizki, Alloh taolo hodisalardan pok, barcha mahluqotdan behojatdirki, xaloyiqni o‘z xohishi va hikmati bilan yaratgan. Yo‘q narsani bor qilish yoki ma’lum narsani izhor qilishda u hech narsaga muhtoj emas. U hamma ishni o‘z tadbiri va irodasi bilan, qaysidir sababga bo‘ysunib emas, balki rabboniy bir hikmat va o‘z yagonaligining sanad (hujjat, dalil)larini namoyish qilish bilan boshqaradi. Hamma narsa uning yagonaligiga dalildir.

Har qanday nuqsondan pok zot Alloh o‘z-o‘zidan mavjuddir. Arshdan yergacha qolgan hamma narsa Uningsiz (Uning yordamisiz) mavjud emas. Hamma xaloyiq uning qudrati va nufuzi oldida majbur va makruhdirlar, ma’rifatning chegarasini bilishdan ojizdirlar. Uning qazo va qadarining siridan mahjub(pardalangan)dirlar. Ular o‘zlariga foyda yoki zarar keltirish, o‘zlarini o‘zlari yaratish yoki o‘lganlaridan keyin tiriltirishga molik emaslar.

Alloh taolo bizning xotiralarimizga o‘rnashib olgan, fikrlashimiz va dalillarimizga aralashib ketgan, zehnlarimiz va qalblarimizga yopishib olgan narsalardan (xayollardan) pok. U xohlagan ishini qilishga qodir. Uning tengiyu o‘xshashi, avvaliyu oxiri, tushishiyu (biror manzilga qo‘nishi) jo‘nashi, harakatiyu yuki, makoniyu boshpanasi yo‘q. U ahli kufr va zalolat bo‘lmish zolimlarning gap so‘zlaridan yuqori. Fazl, oliyjanoblik, buyuklik va ulug‘lik sohibidir. Kim jannatga kirsa, uning fazli bilan kiradi. Kim do‘zaxga kirsa, uning adli bilan kiradi. Bir ishni qilmoqchi bo‘lsa, unga «bo‘l» deydi, u bo‘ladi. Uning hukmini hech kim rad eta olmaydi...

Alloh bilimdon, qudratli, mislsiz. U har narsani eshitib, ko‘rib turuvchidir. Alloh naqadar odil xo‘jayin va naqadar marhamatli pushtipanohdir. Inshoalloh, uning irodasi birla hayotmiz, o‘lamiz va qayta tirilamiz.

**Muqimjon MAHMUD tarjimasi.**

*("Kitob dunyosi" gazetasining 2023-yil 10-avgust, 15-sonidan olindi).*

*O‘qing, qiziq*

## Ulkan asteroid 23-avgust kuni Yerga juda yaqin keladi



Bu haqda NASAning Yerga yaqin ob’ektlarni o‘rganish markazi ma’lum qildi. Mutaxassislarning fikricha, 1988 EG samoviy jismi sayyoramiz tomon 14,25 kilometr soat tezlikda uchadi. Uning diametri 430 dan 960 metrgacha.

Potensial xavfli astronomik obyektlar Yer orbitasini kamida 7,5 million kilometr masofada kesib o‘tadigan obyektlardir.

## Microsoft yaratuvchisi juda kam uxlagan



Amerikalik milliarder Bill Geyts o‘zi asos solgan Microsoft korporatsiyasida ishlaganda ongli ravishda kamroq uxlaganini tan oldi, chunki u buni dangasalik alomati deb bilgan.

Tadbirkorning so‘zlariga ko‘ra, avvallari u hamkasblari bilan har kuni kim eng kam uxlashi borasida raqobatlashgan. Milliarder 40 yoshida olti soatdan kam uxlashga uringani, ayrim kunlarda esa ketma-ket 96 soatgacha uyqusiz o‘tkazganini ma’lum qiladi.

"Xullas, men kamroq uxlash uchun qo‘ldan kelgancha harakat qilishim kerak deb o‘ylay boshladim, chunki uxlash dangasalik va vaqtni behuda sarflashdir", deydi tadbirkor.

O‘shandan beri milliarder uyqu haqidagi fikrini o‘zgartirgan va kunlik uyqu ko‘rsatkichini aqlli bilaguzuk orqali kuzatadi. Qariyb yetmishga kirgan milliarder endilikda kechasi yetti-sakkiz soatgacha uxlashni maqsad qilganiga aniqlik kiritdi.

## O‘zga sayyorada hayot borligini aniqlash imkoni tug‘ildi



Berklidagi Kaliforniya universiteti olimlari "Astrophysical Journal"-da chop etilgan maqolada radio va mikroto‘lqinli astronomiyadagi yangi texnologiya qabul qilingan signalning koinotdan yoki Yerdan kelayotganini aniqlash imkonini beradi.

Tadqiqotchilarning fikricha, sayyoramizdagi ko‘plab obyektlar radioto‘lqin va boshqa signallar chiqaradi. Yerdan tashqari sivilizatsiyalar ham aynan bir xil signal bergani bois yerdan kelayotgan signallar ularni tahlil qilishni qiyinlashtiradi. Antropogen radiochastota shovqini esa begona sivilizatsiyalarni qidirishda asosiy omil hisoblanadi.

Miltillash yoxud ssintillyatsiya, ya’ni muhit ionlashtiruvchi nurlanish bilan o‘zaro ta’sirlashganda lyuminesans (yorug‘lik to‘lqinlari chiqishi) ro‘y berish holati. Aynan ana shu ko‘rsatkichni o‘lchash texnologiyasi signal qabul qiluvchiga minimal antropogen shovqin ta’siri asosida manbani aniqroq aniqlash imkonini beradi, deydi ekspertlar.

Ma’lumki, begona signal bir nuqtadan keladi. Qabul qilingan signalning tabiatini tekshirish usullaridan biri esa uning manbasini o‘chirishdir. Bunday holda, radioteleskop osmonning boshqa nuqtasiga yo‘naltiriladi va keyin dastlabki holatiga qaytariladi - agar signal kelishda davom etsa, demak, u boshqa planetadan kelyapti.

**Internet ma’lumotlari asosida G.XOLDOROVA tayyorladi.**

## SHU OYDA TAVALLUD TOPGANLAR

**27-AVGUST**

**Diyora SALIMOVA** – 1990-yilda Samarqand shahrida tug‘ilgan. Zulfiya nomidagi Davlat mukofoti laureati.

**28-AVGUST**

**Ivan DYACHKOV** – (1905-1985) Zootexnik olim. O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan fan arbobi.

**G‘ulomjon BOYMURODOV** – 1969-yilda Bulung‘ur tumanida tug‘ilgan. O‘zbekiston Respublikasida xizmat ko‘rsatgan aloqa xodimi.

# Assalomu alaykum!

Bu kalomni har kuni aytasizmi?

**Kechagidek esimda. Abituriyent edik. Bir do‘stim bilan o‘qishga hujjat topshirish uchun shaharga borganmiz. Taksi bizni institut darvozasi yaqinida qoldirdi. Biz bir tanishimizni shu yerda kutishimiz kerak edi. U kelguncha yonimizdan o‘nlab odamlar u yoqdan-bu yoqqa o‘tardi. Ota-onamiz ko‘chada o‘zimizdan kattalarga salom berish kerakligini uqtirgani uchun, o‘tgan-qaytgan kishiga “Assalomu alaykum!”, deymiz. Ularning yoshi ulug‘roqlari alik oladi. Aksariyati esa hayron boqib, o‘tib ketadi. Ayrimlari bezrayib, eshitmaganga oladi. Sal narida turgan, ko‘rinishidan talaba yigit bizni kuzatib turgan ekan shekilli, yaqinlashib shunday dedi:**

- Shaharga birinchi marta kelib turganliklaring sezilib turibdi, ukalar. Bundan 3-4 yil ilgari men ham qishloqdan shaharga birinchi marta kelib, hammaga salom beraverganman. Bu yerda esa tanishlargagina salom berilar ekan.

Bu voqea 20 yillar ilgari bo‘lgan edi. Qishloqda tanishmi-notanishmi, o‘zimizdan kattalarga salom bersak, albatta, alik olardi.

To‘g‘risi, o‘sha paytlarda tuman markazida ham yoshlar kattalarga tanisa-tanimasa, salom berardi. Bugun esa boshqacharoq. Tuman markazlarida ham salom berish odati unutilgan, nazarimda. To‘g‘ri-da, deb o‘zimni o‘zim ovutaman. Tuman markazlari ham katta shahardan qolishmaydigan darajada hozir. Zamonaviy inshootlar qurilgan, yo‘llar ravonlashgan, velosiped va piyodalar uchun alohida yo‘laklar bor. Shunga yarasha odamlar bilan gavjum. O‘sha biz 20 yil ilgari ilk bor duch kelgan shahar muhiti bu yerlarga ham yetib kelgan.

Oliy o‘quv yurtini tugatib, ta’lim muassasalarida faoliyat yuritish nasib etdi. Bir necha yildan beri Kattaqo‘rg‘on tumanidagi 30-bolalar musiqa va san’at maktabida rahbarlik qilib kelyapman. Shuningdek, xalq deputatlari tuman Kengashi deputatiman. Musiqa maktabidagi bolalarni o‘z farzandlarimdek ko‘rib, kattalarga salom berishni unutmaslikka chaqiraman. Ba’zan mahallalarda madaniy-ma’rifiy tadbirlarda ishtirok etganimda ham farzandlariga tarbiya berishda ota-onalar salom berish odobiga alohida e’tibor qaratishi lozimligini aytaman. Biroq bir voqeadan keyin mening bolalarga berayotgan tarbiyam ham, ma’ruzalarim ham unchalik kuchli ta’sirga ega emasligiga amin bo‘ldim.

Xullas, bir kuni yoshi ulug‘ ustoz bilan qishlog‘imiz ko‘chasida ishdan uyga piyoda suhbatlashib qaytayotgan edik. Farzandga ota-onaning tarbiyasi yetarli bo‘lmasligi haqida so‘zlayotgan ustoz qarshimizdan kelayotgan ikki yosh yigitga ko‘zi tushib, gapini to‘xtatdi. Qo‘llarida shapaloqdek telefonlar, o‘zlari bilan o‘zlari ovora yoshlar bizga e’tibor ham bermay, yonginamizdan o‘tib ketayotganda, ustoz ularga qarab baland ovozda “Assalomu alaykum, bolalarim!”, dedi. Yigitlar to‘xtadi. Ulardan biri uyalganday bo‘lib, sekingina “Assalomu alaykum”, dedi-da, boshini egib turdi. Ikkinchisi esa alik ham olmay, ko‘zini lo‘q qilib, ustozga qarab turibdi.

Ustoz ular bilan yaqindan tanishdi.



Kimlarning farzandi ekanligini bilgach, bobolari bilan qadrdon ekanligi va ularning yaxshi fazilatlari haqida gapirdi. Yigitlar ustozning nima demoqchi ekanligini angladi, shekilli, ikkisi ham salom bermaganligi uchun uzr so‘rab, bu holatni boshqa qaytarmaslikka va’da berdi. Bobolariga bu voqea haqida aytib qo‘ymasligini iltimos qildi.

Bundan xulosa chiqardim. Ko‘chada uchragan bola salom bersa, alik olaman va indamay o‘tib ketayotganiga esa qo‘limni ko‘ksimga qo‘yib, salom berishga qaror qildim. Shu yo‘l bilan ham kichiklarga salom berish odobini o‘rgatsa bo‘lar ekan.

**Shodiyor AMIROV.**

MATBUOT UYI
Zarafshon
САМАРКАНДСКИЙ ВЕСТНИК

**MUASSIS:** Samarqand viloyati hokimligi

**Bosh muharrir: Farmon TOSHEV**

*Gazeta O‘zbekiston matbuot va axborot agentligining Samarqand viloyat boshqarmasida 2012-yil 30-martda 09-01 raqam bilan ro‘yxatga olingan. Nashr 100. Indeks 438. 16 372 nusxada chop etildi. Buyurtma 449. Hajmi 2 bosma taboq, bichimi A-2*

***Gazeta haftaning seshanba, payshanba va shanba kunlari chiqadi.***

**QABULXONA:** (66) 233-91-51, **REKLAMA VA E’LONLAR:** (66) 233-91-56
**BO‘LIMLAR:** (66) 233-91-57, 233-91-58, 233-91-59, 233-91-61
**MANZILIMIZ:** 140100, Samarqand shahri, Ulug‘ Tursunov ko‘chasi, 80-uy, Matbuot uyi.

Gazeta «Zarafshon» tahririyatining kompyuter bo‘limida sahifalandi.

«Noshir lux» MCHJ bosmaxonasida chop etildi. **Korxona manzili:** Samarqand shahri, Spitamen ko‘chasi, 270-uy.

Bosishga topshirish vaqti: soat 18:30 da.
Bosishga topshirildi: soat 19:00

**Navbatchi muharrir:** A.HAYDAROV.
**Navbatchi:** X.ERNAZAROVA.
**Sahifalovchi:** B.ABDULLAYEV.

Saytimizga o‘tish uchun QR-kodini telefoningiz orqali skaner qiling

ISSN-201667X
9 772010 667009

Sotuvda narxi kelishilgan holda